



QUALITY WORD GROUP IN ENGLISH. TYPES AND LEVELS

Abdulazizova Nigora Muhammad qizi

Student of Namangan State University
nigora.muhammad@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5516242>

ARTICLE INFO

Received: 05th September 2021
Accepted: 10th September 2021
Online: 15th September 2021

KEY WORDS

word categories, quality levels, simple level, comparative level, accumulation level, link.

ABSTRACT

This article discusses the quality of a phrase in English, its proper use. Information is provided on the changes and rules that occur in the formation and formation of quality levels.

INGLIZ TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMI. TURLARI VA DARAJALARI.

Abdulazizova Nigora Muhammad qizi

Namangan davlat universiteti talabasi
nigora.muhammad@mail.ru

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-sentabr 2021
Ma'qullandi: 10-sentabr 2021
Chop etildi: 15- sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

so'z turkumlari, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, bog'lanish.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tilidagi sifat so'z turkumi, undan to'g'ri foydalanish haqida so'z yuritiladi. Sifatning darajalarini hosil qilish va hosil qilishda ro'y beradigan o'zgarishlar hamda qoidalar haqida ma'lumot beriladi.

O'zbek tilida bir qator so'z turkumlari mavjud bo'lgani singari ingliz tilida ham bir qancha so'zlar bir qancha turkumlarga ajratiladi. Ot (noun), sifat (adjective), son (numeral), olmosh (pronoun), ravish

(adverb), fe'l (verb) kabilar shular jumlasidandir. Har turkum so'zlar o'ziga xos va ma'lum so'roqlarga javob beradi. Biz so'zlarni turkumlarga ajratishda ularning gapda kelish o'rni va qaysi so'roqqa javob



bo'lishiga e'tibor qaratsak, so'zlarni hech ikkilanmay turkumlarga ajrata olishimiz mumkin.

TAHLIL VA METODOLOGIYA

Gapdagi so'zlardan sifat turkumiga mansub so'zlarni ajratish mushkul ish emas. Boisi sifatlar har doim otga bog'lanadi va o'zi bog'langan so'zning rangini, ta'mini, hajmini, daraja-miqdorini aniqlab keladi. Sifatlarning gapdagi vazifasi aniqlovchi hisoblanadi. Ingliz tilida sifatlar yana bir jihatda ko'ra farqlanadi. Ya'ni: sifatlar -ed yoki -ing ko'rinishida tugashi mumkin.

Agar sifat shaxsni ifodalab kelsa, -ed bilan tugaydi. Masalan, Jane is bored.

Agar sifat narsani ifodalab kelsa, u holda -ing bilan yakunlanadi. Masalan, Jane's job is boring. [Raymond Murphy. Fourth Edition. Unit 98.]

NATIJALAR

Sifatning uch hil darajasi bo'ladi: oddiy, qiyosiy va orttirma.

BIR BO'G'INLI SIFATLARNING DARAJALANISHI

1. Bir bo'g'inli sifatning oddiy darajasida sifatga hech qanday qo'shimcha qo'shilmaydi va sifatning o'zi yoziladi. Masalan:

Small car – kichik mashina. Big garden – katta bog'. Strong man – kuchli odam.

2. Bir bo'g'inli sifatning qiyosiy darajasida sifatga "-er" qo'shimchasi qo'shiladi. Bu qo'shimcha o'zbek tilidagi "-roq" qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Masalan:

Smaller car – kichikroq mashina. Bigger garden – kattaroq bog'. Stronger man – kuchliroq odam.

3. Bir bo'g'inli sifatning orttirma darajasini yasash uchun sifatga "-est" qo'shimchasi qo'shiladi va har doim orttirma

darajadagi sifatdan oldin "the" aniq artikli qo'yiladi. Ingliz tilidagi "-est" qo'shimchasi o'zbek tilidagi "eng" so'ziga to'g'ri keladi. Masalan:

The smallest car – eng kichik mashina. The biggest garden – eng katta bog'. The strongest man – eng kuchli odam.

KO'P BO'G'INLI SIFATLARNING DARAJALANISHI

1. Ko'p bo'g'inli sifatning oddiy darajasida sifatga hech qanday qo'shimcha qo'shilmaydi, sifatning o'zi yoziladi. Masalan:

Important subject – muhim fan. Beautiful girl – chiroyli qiz. Difficult task – qiyin vazifa.

2. Ko'p bo'g'inli sifatning qiyosiy darajasini yasash uchun ko'p bo'g'inli sifatdan oldin "more" so'zi qo'yiladi. Bu o'zbek tilidagi "-roq" qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Masalan:

More important subject – muhimroq fan. More beautiful girl – chiroyliroq qiz. More difficult task – qiyinroq vazifa.

3. Ko'p bo'g'inli sifatning orttirma darajasida sifatdan oldin "the" aniq artikli va "most" so'zi qo'yiladi. Bu ma'no jihatidan o'zbek tilidagi "eng" so'ziga to'g'ri keladi. Masalan:

The most important subject – eng muhim fan. The most beautiful girl – eng chiroyli qiz. The most difficult task – eng qiyin vazifa.

MUHOKAMA

O'ZAGIDAN O'ZGARIB DARAJALANUVCHI SIFATLAR

Ingliz tilidagi ba'zi sifatning darajalanishi yuqoridagi qoidalarga bo'ysunmaydi. Bunday sifatlar sifat



o'zagining to'liq o'zgarishi orqali hosil qilinadi.

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
Yaxshi good	better	the best
Yomon bad	worse	the worst
Uzoq far	farther	the farthest
Kam, oz little	less	the least
Ko'p much / many	more	the most

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, "yaxshi" sifatining oddiy darajasi good, qiyosiy darajasi better (goodder emas!) va orttirma darajasi the best (the gooddest emas!) bo'ladi. Hamda jadvaldagi boshqa sifatlar ham huddi shu qoida bo'yicha o'zagidan o'zgarib darajalanadi

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilida ham sifat, huddi o'zbek tilidagidek, otning belgisini bildiradi. Ingliz tilida sifat har doim otdan oldin ishlatiladi.

References:

1. "English grammar in USA" Fourth Edition. Raymond Murphy. First published 1985. Reprinted 2012.
2. "English Grammar" Tashkent. TURON-IQBOL. 2019
3. TOEFL -1
4. www.fledu.uz